# FALSAFA VA E'TIQOD: O'TMISH, BUGUN VA KELAJAK

## Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI

III-JILD

## PHILOSOPHY AND FAITH: PAST, PRESENT AND FUTURE

International Scientific and Practical Conference
PROCEEDINGS
Volume - 3

## ФИЛОСОФИЯ И ВЕРА: ПРОШЛОЕ, НАСТОЯЩЕЕ И БУДУЩЕЕ

Международная научно-практическая конференция
МАТЕРИАЛЫ
Том - 3

23-24-aprel, 2025

**“FALSAFA VA E’TIQOD: O‘TMISH, BUGUN VA KELAJAK”**
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**
**TASHKILIY QO‘MITASI**

| | |
|---|---|
| **Tashkiliy qo‘mita raisi:** | |
| **G‘.I. Muxamedov** | Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori. |
| | |
| **Tashkiliy qo‘mita a’zolari:** | |
| **B.X. Eshchanov** | Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor. |
| **S.B. Qorayev** | Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor. |
| **D.B. Axmadjanov** | O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor. |
| **O.A. Ortiqov** | Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor. |
| **S.X. Gayupova** | Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i. |
| **R.A. Ikramov** | Gumanitar fanlar fakulteti dekani. |
| **L.K. Axatov** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri. |
| | **Tashkiliy qo‘mita ishchi guruhi:** |
| **Madalimov T.A.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti |
| **Jo’rayev H.A.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti |
| **Koshanova N.M.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti |
| **Tashmetov T.X.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti |
| **Karshiyev Sh.S.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti |
| **Neshitov P.Yu.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti |
| **Xaytmetov R.K.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **Muhammadiyev L.G.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **Nafasov A.K.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **Eronov S.Q.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **Saidusmanov B.A.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| **Usmanov A.X.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Sunnatov T.R.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Tuganova L.Dj.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Toshtemirov R.A.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Ilmurodova f.Sh.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Yo’ldoshev U.X.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Abdullayeva D.N.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Sa’dullayeva M.X.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Xolmo‘minov G.B.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Miraxmedova Sh.N.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Yakubov X.M.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Imomova U.I.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Tadjibayeva R.O.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Umarova Sh.B.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Yursinboyev J.M.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Nurmanov Sh.J.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Abdullayev T.S.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Maxkamov D.Sh.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Ilyosov Sh.B.** | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |
| **Burliyev** U.K. | Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi |

# ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI

**Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich**
CHDPU Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi t.f.f.d.(PhD)
Email: baxrom.said@mail.ru
**Yulduz Ashurova Erkinovna**
Tiflopedagogika2308yulduz@gmail.com
**Maftuna Abdumalikova Sobir qizi**
maftunaabdumalikova995@gmail.com
Chirchiq davlat Pedagogika unversiteti Pedagogika fakulteti Maxsus pedagogika:tiflopedagogika yo'nalishi 2-kurs talabalari.

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Islom dini dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biriligi, bu dinga e'tiqot qiluvchilar soni ko'pligi. Muqaddas kitobi va amal qilinadigan qoidalar, Islom dinining asosiy aqidasilari haqida. Shuningdek xudoga Allohga e'tiqod qilish bu diniy ta'limotning asosini tashkil etishi haqida aytib o'tiladi.

**Kalit so'zlar.** Qur'on, hadis, fiqh, aqida, sura, oyat, sunniylik, shialik, esxatologiyaning mohiyati, qiyomat, oxirat dunyosi, nomoz, ro'za, zakot.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье обсуждается тот факт, что ислам является одной из самых распространенных мировых религий в мире, а также большое количество верующих в эту религию. Библия и правила, которым следует следовать, касаются основных принципов ислама. В нем также упоминается, что вера в Бога составляет основу религиозного учения.

**Ключевые слова.** Коран, хадисы, фикх, акыда, сура, аят, суннизм, шиитизм, суть эсхатологии, Апокалипсис, мир загробной жизни, молитва, пост, закят.

## ANNOTATION

This article discusses the fact that Islam is one of the most prevalent world religions in the world, and the large number of believers in this religion. The Bible and the rules to be followed are about the basic principles of Islam. It also mentions that belief in God forms the basis of religious teaching.

**Keywords.** The Qur'an, Hadith, Fiqh, Aqida, Surah, Verse, Sunniism, Shiaism, the essence of eschatology, the Apocalypse, the world of the Hereafter, prayer, fasting, Zakat.

## KIRISH

Islom dining paydo bo'lishi. Islom - dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biri hisoblaniladi. Osiyo qit'asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afqoniston, Pokiston, Afrika kit'asidagi Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr Respublikasi Somali singari mamlakatlar xalqlari, Efiopiya, G'arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Malayziya, Indoneziya xalqlari, Livan, Hindiston, Xitoy hamda Filippin axolisining ma'lum bir qismi. Yevropa kit'asida esa Bolqon yarimorolida yashovchi xalqlarning bir bo'lagi islomga e'tiqod qiladi. Islom O'rta Osiyo, Zakavkazye va Shimoliy Kavkaz, Volgabo'yi, G'arbiy Sibir va boshqa ayrim hududlarda yashovchi aholining bir qismi ongi va turmushida mavjuddir. Bu xalqlarning turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Yer yuzida islomga e'tiqod qiluvchilar, ya'ni musulmonlar bir milliard 300 mln.dan oshdi.

Yevropa, Amerika va Rossiyada islom, uning tarixi va manbalarini o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Lekin islom tarixi, ta'limoti, muqaddas yozuvlarini tahlil, tatqiq qilish Rossiyada ayniqsa O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Shimoliy Kavkazda keng ko'lamda ancha oldin amalga oshirilgan. Bu ish endi yanada kengroq miqyoslarda olib borilmoqda. Arab xalqi hayotni VI asr oxiri VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealarcarab qabilalarining ijtimoiy hayot taqozasi bilan vujudga kelgan markazlashishga intilishga undagan. Islom ayni shu intilishni o'zida aks ettirgan g'oya, mafkura sifatida yuzaga kelgan, markazlashgan arab davlatining vujudga kelishi, qo'shni mamlakatlarga yurish qilib, yangi din Islomni targ'ib qilish arab xalifaligining kengayishi muhim ijtimoiy yo'nalish edi. Markaziy va Sharqiy Arabiston yarim oroli sahrolarida yashagan,arab badaviylari o'rtasida ibtidoiy tuzumga xos bo'lgan politeistik majusiylik diniy tasavvurlari shukmron edi. Yahudiylik va xristianlik hamda ularning ayrim sektalari islom paydo bo'lishi arafasida arab qabilalari orasida muayyan darajada tarqalgan edi. V-VI asrlarda arab qabilalari urug'-qabilachilik tuzumi yemirila boshlagan, ibtidoiy diniy tasavvurlar tanazzulga yuz tutgan edi. qabilalar o'rtasida markazlashishga bo'lgan intilishning g'oyaviy in'ikosi sifatida yakka xudolikka xos diniy aqidalarning kurtaklari shakllana va rivojlanib borgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yakka xudolik to'g'risidagi bunday diniy ta'limot faqat islomdagina emas, balki u paydo bo'lmasdan birmuncha vaqt ilgari Arabistonning ayrim joylarida targ'ib qilina boshlagan edi. Islom esa ana shu targ'ibotlarning galdagi shakllanishi va tarkib topishining natijasi sifatida vujudga kelgan. Islomdagi ilgari arab qabilalari orasida yakka xudolilik to'g'risida targ'ibot yuritgan, o'zini payg'ambar deb e'lon kilgan shaxslar manbalarda «xaniflar», ya'ni haq-haqiqat izlovchilar nomi bilan ma'lumdir. Islomning paydo bo'lishi arab qabilalari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichi bilan bog'liq bo'lgan. Islom monoteistik din sifatida. Ya'ni yakka

xudoga e'tiqod qiluvchi ta'limotni yaratib, barcha ko'rinishlarini shirk deb atab, ularni ta'qiqlagan. O'rta Osiyoda boshqa joylardagi kabi sof quldorlikka asoslangan munosabatlar bo'lmagan. Feodal munosabatlari ham demokratik elementlari bilan ajralib turgan. Chunki sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchiliqerkin hunarmandchilik an'analari u munosabatlarga alohida mazmun kiritganki, bu xolat chuqur ilmiy tadqiqotga muhtojdir. Eron, Hindiston va Xitoy mamlakatlari bilan savdo-sotiq olib borilgan. Yunon, hind va O'rta Osiyo xalqlari madaniyatining aralashib ketishi tufayli Sharqda o'ziga xos juda yuksak ellinistik madaniyat vujudga kelgan. O'rta Osiyo «Ipak yo'li» orqali Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lovchi, tajribalarni yoyuvchi maskan bo'lgan. Natijada Gresiya va Hindiston madaniyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu yerda pul-tovar munosabatlari ham rivojlangan. Tarixiy asarlarda Baqtriya «2000 shaharli mamlakat» sifatida tilga olingani bejiz emas. 1932 yilda Amudaryo bo'yida eski Termiz yaqinidagi Ayritom xarobasidan ikkita toshtaxta topilgan.Ularda, kuy chalayotgan uch ayol obrazi tasvirlangan. Bu faqat monumental san'at bo'libgina qolmay, balki o'tmishda O'rta Osiyoda musiqa madaniyati ham rivojlanganligidan dalolatdir. 1965 yilda Qadimiy Afrosiyob shaharchasi xarobalaridan topilgan tasviriy san'at obidalari VII asrga oid bo'lib, go'zalligi jihatidan shu vaqtgacha jahonda topilgan yodgorliklardan ustun turadi. Markaziy Osiyo xududida ibtidoiy djamoa tuzumining yemirilishi bilan miloddan avvalgi 2-ming yillikning oxiri, 1-ming yillikning boshlarida Baqtriya, So'g'd, Xorazm, Parfiya kabi davlatlar vujudga kelgan. Miloddan avvalgi VI asrda O'rta Osiyoning katta qismini Eron shohi Kir P bosib olib, uni ahmoniylar davlati tarkibiga kiritgan, so'ngra Iskandar Zulqarnayn bu yerlarni ishqol qilib, juda katta boyliklarni, madaniy obidalarni, jumladan, 12 ming xo'kiz teriga tilla suvi bilan yozilgan «Avesto»ning yagona kitobini ham olib ketgan.

## NATIJA

Islomda, shunday qilib, yagona - xudoga Allohga e'tiqod qilish bu diniy ta'limotning asosini tashkil etgan. Alloh - arabcha so'z bo'lib, o'zbekchaga tarjima g'ilsaq Tangri degan ma'noni bildiradi. Forsiyda Xudo deyiladi. Alloh, Tangri, Xudo so'zlariga odatda sifat qo'shilib, Alloh taolo, Xudoi Taolo shaklida ham ishlatiladi. Taolo - ulug', oliy degan ma'noni anglatadi. Alloh taoloning Qur'onda va Hadislarda qayd etilgan ismlari 99 tadir. Bulardan tilimizda eng ko'p qullaniladiganlar: Rahim - juda rahimli; Rahmon - o'ta mehribon; Mo'min - omon va omonlik beruvchi; Karim karamli, saxovatli, kechirimli, Sattor, Akbar buyuk kabi sifatlar qo'shib aytiladi. Allohning mazkur ismlariga abd-qul so'zi olddan qo'shilib kishi ismlari yasaladi: Abdurahmon - o'ta mehribon Allohning quli; Abdulkarim - karamli, sahovatlining quli; Abdug'agi, Allohning ehtiyojsiz quli va boshqalar. Islom ta'limoti bo'yicha, Alloh hamma joyda xoziru nozirdir, ammo o'zi lomakan, ya'ni bemakondir; unga

vaqt, zamon ham daxlsizdir. Tug'ilish, o'lim barcha jonzotlarga, shu jumladan odamlargagina xosdir; Alloh bundan mustasnodir. Jahonda dunyo aholisining 24,9%i, ya'ni 1,1–1,8 milliard kishi Islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20%idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyodida musulmonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi

Islomning muqaddas kitobi Qur'ondir Musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Allohning vahiy qilgan dalolati deb tushuniladi. Islomning aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy me'yorlari, cheklash va ta'qiqlari Qur'on bilan birga uning tafsirlarida, hadis to'plamlari va shariat qo'llanmalarida, shuningdek, VIII-XII asrlarda vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o'z ifodasini topgan.

Islomning asosiy aqidasi— „Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli“. Islom ilohiyotining ilk shakli — kalom bo'lib, VIII asrda Arab xalifaligida vujudga kelgan. Mutakallimlar Islom dini aqidalarini ishlab chiqqanlar.

Islom dini 5 „asos“ yoki „ustun“ (arkon ad-din al-islomiy)ga ega:

- 1) Kalimai shahodat
- 2) Namoz o'qish;
- 3) Ro'za tutish;
- 4) Zakot berish;
- 5) imkoniyat topilsa haj qilish.

Shulardan birinchisi iymon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Imon 7 aqidani — Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lgandan keyin tirilishga ishonishni o'z ichiga oladi. Islomda ro'za hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, aqiqa, mavlid kabi o'ziga xos diniy marosim va bayramlar tarkib topgan. Bundan tashqari, mahalliy xalqlarda Islomgacha mavjud bo'lgan urf-odatlar, jumladan, fol ochirish, dam soldirish, aziz-avliyolarga, muqaddas joylarga sig'inish ham Islom marosimchiligiga moslashib ketgan. Bu narsa, ayniqsa, Markaziy Osiyo musulmonlari orasida hali hanuz saqlanib qolgan. Aslida, Islom aqidasiga ko'ra, joylarga sig'inish, shaxslarga sig'inish, fol ochish va fol ochdirish, harom qilingan, ya'ni Alloh taolodan o'zgasidan ko'mak so'rash ta'qiqlangan.

Musulmon 4 sunniy (hanafiylik, hofi'lik, moliklik, hanbaliylik) va shia mazhablari shakllangan. Mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Firqalar, asosan, geografik va iqlimiy omillar hamda Islomni qabul qilgan xalqlarning oldingi madaniyati, an'analari va diniy tasavvurlari ta'sirida vujudga kelgan.

## XULOSA

Islomning rivojlanishiga Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar katta hissa qo'shdi. Imom Buxoriy kitob holiga keltirgan hadislar to'plami — „Al-Jome as-Sahih" Islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Buxoriy va uning safdoshlari Islom ilohiyotining barcha yo'nalishlari bo'yicha muhim tadqiqotlar qildilar. Jumladan, Islom nazariyotchiligida yuqori baholanadigan „Ilal ashshariat va Xatm ul-Asliyot" risolasini ta'lif etgan Hakim Termiziy, Islom huquqshunosligini o'rganishning asosiy qo'llanmasi hisoblangan " Hidoya" ning muallifi Burhoniddin Marg'inoniy, Islom aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan Imom Moturidiy (qarang Moturidiylik), buyuk faqih Abu Lays Samarqandiy, musulmon dunyosining eng e'zozli muxaddislaridan Iso Termiziy, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan Zamaxshariy, tasavvufda o'ziga xos iz qoldirgan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Mahdumi A'zam, Najmiddin Kubro, So'fi Olloyor, Xo'ja Ahror, Abduxoliq G'ijduvoniy va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlashtirganliklari tufayli O'rta Osiyoda madaniy hayotning adabiyot, me'morlik, musiqa kabi sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi.

## REFERENCE

1.Yo'ldoxo'jayev H. Rahimjonov B., Komilov M., «Dinshunoslik».-T.: 2001.

**2.**Jabborov Iso, Jabborov Sanjar. Jaxon dinlari tarixa.- T.: «O'zbekiston» 2002.

**3.**Dinshunoslik asaolari.-T.: «O'zbekiston», 1995.

4.Xusnitdinov Z. Islom va mazhablar. - T.: 2000.

**5.**Karimov Ibrohim. Ma'naviyat, falsafa va hayot.-T.: fan, 2001.

6.Xujamurodov I., Sa'dullayev N., Ma'naviy barkamollik - ziynatdir.-T.2001

**7.**Karimov I., Olloh qalbimizda, yuragimizda, T., 1999; Karimov I., O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barkamollik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, T., 1997; Qur'oni karim, T., 2001; Hadis (AlJomi' as-sahih), 1-4-j.lar (2nashri), T., 1997; Hidoya (1-j.), T., 2000; Sog'uniy A., Tarixi Muhammadiy (1-2-kitob), T., 1997; Hasanov A., Qadimgi Arabiston va ilk islom (1-kitob: Johiliya asri), T., 2001; Komilov N., Tasavvuf, T., 1999; Husniddinov 3., Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar, T., 2000.[8]

8. Abduganievich S. B. DEVELOPMENT OF THE RAILWAY AND AUTOMOBILE NETWORK OF UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE 20TH CENTURY (1945-1990) //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – T. 3. – №. 2. – С. 276-280.

9. Саидусманов Б. ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИДА АВТОМОБИЛЬ ТРАНСПОРТИ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШ ТАРИХИ (1945-1990) //TAMADDUN NURI JURNALI. – 2025. – Т. 1. – №. 64. – С. 337-339.

10. Саидусманов Б. А. ЎЗБЕКИСТОНДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XX-АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 7. – С. 72-74.

| | |
|---|---|
| UNING KELIB CHIQISHI, ASOSIY E'TIQODLARI | |
| 64. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Yulduz Ashurova Erkinovna, Maftuna Abdumalikova Sobir qizi** ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI | 227 |
| 65. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Siyovush Xikmatulloyev Jumanazar o'g'li** ISLOM TA'LIMOTI. ISLOM ILOHIYOTI, UNING ASOSIY AQIDALARI | 233 |
| 66. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Hadicha Rozmatova Azamat qizi Rayhona Jangirova Mansurbek qizi** YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT | 238 |
| 67. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Zumrad Shomurodova Gulimboy qizi** MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING DINIY QARASHLARI | 241 |
| 68. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich,Dilafruz Movlonova Ne'matullaevna** YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH VA UNGA OID SIYOSAT | 245 |
| 69. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Sardor Davlatov Aamovich Samira Shorahimova Xurshed qizi** YOSHLARDA TA'LIMIY VA TANQIDIY TAFAKKUR TUSUNCHALARI | 248 |
| 70. **Baxrom Saidusmanov Abduganiyevich, Gulsanam Nematova Furqatovna** ABDULLA AVLONIY - MA'RIFATPARVARLIK VA ADABIY MEROS | 251 |
| 71. **Райҳона Ҷамолитдонова** БАЪЗЕ МАСЪАЛАҲОИ УСЛУБИВУ БАДЕӢ ДАР ЭҶОДИЁТИ ШОИРИ ЗУЛЛИСОНАЙН - ТУРДӢ | 254 |
| 72. **Сарвиноз Расулова** ИНФОРМАЦИОННЫЕ ВОЙНЫ | 259 |
| 73. **Sitora Tulavbayeva** MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI MADANIY VA MA'NAVIY TARAQQIYOT | 263 |
| 74. **Feruza Azimboyeva Egambergan qizi Uyg'un Abdulhaqov Botir o'g'li** DINSHUNOSLIK: TA'LIM VA TADQIQOT METODLARI | 268 |
| 75. **Sevinch Jurakulova Olim qizi Umida Abdumalikova Abdumalikova** MILLATLAR VA DINLARARO BAG'RIKENGLIK: FALSAFIY TAHLIL | 273 |
| 76. **Сабрина Мамадисмонова** ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В КИТАЕ | 278 |
| 77. **Асем Абдуллаева** ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ФРАНЦИИ | 282 |
| 78. **Арайлым Ермуханова Шералиевна** НЕПРЕРЫВНОСТЬ И СВОЕОБРАЗИЕ ПОНЯТИЯ КОММУНИКАЦИИ И ИНФОРМАЦИИ | 286 |
| 79. **Арайлым Ермуханова Шералиевна** УГРОЗЫ И ОПАСНОСТИ В СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЯХ. | 290 |
| 80. **Абзалбек Жаксылыков** МЕДИАГРАМОТНОСТЬ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: КЛЮЧЕВЫЕ НАВЫКИ ДЛЯ КРИТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ ИНФОРМАЦИИ | 294 |